# SHARQ ALLOMALARINING RANGLARNI NOMLANISHI HAQIDAGI FALSAFIY QARASHLARI

***Pardayev Baxtiyor Abdujabborovich***
*A.Qodiriy nomidagi JDPU, Texnologik talim tasviriy san'at fanlari kafedrasi o'qituvchisi*
*e-mail:pardayevbaxtiyor89@gmail.com*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada jahonga mashhur olim, shoir, naqqosh, musavvir va boshqalar rang haqida, uning turlari, nomlari, ramziy ma`nolari, inson sog`lig`iga ta`siri haqida juda ko`p ilmiy tadqiqot ishlar qilganlar shular haqida qisqacha so'z yuritamiz.*

***Kalit so'zlar:*** *Rang, rang nomlari, sharq allomalari, rang xususiyatari, ranglarning kelib chiqishi.*

***Abstract.****In this article, a world-famous scientist, poet, painter, painter, etc., who have done a lot of scientific research about color, its types, names, symbolic meanings, and its effect on human health, are briefly mentioned. we walk*

***Key words:*** *Color, color names, oriental symbols, color characteristics, origin of colors.*

Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Kamoliddi: Behzod, Firdavsiy, Zahiriddin Bobur kabi jahonga mashhur olim, shoir, naqqosh, musavvir va boshqalar rang haqida, uning turlari, nomlari, ramziy ma`nolari, inson sog`lig`iga ta`siri haqida juda ko`p ilmiy tadqiqot ishlar qilganlar.

Abu Rayhon Beruniy o`zining "Kitob al javohir fi ma`rifat al javohir" (Mineralogiya) asarida ranglarning 200 dan ortiq nomlarini ochgan. Sharqi olim-u shoirlarimiz, musavvir-u naqqosh, xattot va boshqalar ranglarni: yuzdan ortiq ranglarini ajrata olganlar hamda ularning nomini, eng muhi: har bir rangning ramzi va uning tilini bilganlar. Afsuski, yillar, asrlar o`tishi bilan hozirga kelib, buning aksi bo`lib, asta-sekin ranglarning nomi turlari va ramziy ma`nosi hamda ularning tili yo`qolib ketish arafasida turibmiz Hozirda ranglarning nomini odamlardan nechta rangni sanab bera olasiz desangiz, faqat 10 ga yaqinini sanab o`tishi mumkin. Bu esa yuqorida aytgan gapimizning dalilidir.

Xalqimiz quyidagi ranglarni ajrata olgan va ularning nomini bilgan. Hattoki olimlarimiz har bir rang nomi nima uchun qo`yilganligini o`z asarlaridi yozib qoldirganlar. Shu ranglar nomi bilan tanishib chiqamiz: alvon arg`uvon, bargikaram, binafsha, bug`doyrang, bo`z, gulgun, gunafsha: jigarrang, zangori, za`faron, zumrad, qahrabo, kulrang, ko`k lojuvard, lola rang, malla, moviy, mosh rang, nafarmon, ol, oq, pistamagiz, pistaki pushti, sariq, safsar, somonrang, sur, feruza, uchoq kesak qizil, qirmizi qora, qora mag`iz, qoracha, qo`ng`ir, havorang, anordona, aqiq, bayzogul barg rang, baqa tuni, bika, burul, gulnor, gulobi, danifa

rang, jigari, jiyron, jo`ja, zaynovi, zar, zarchava, zarg`aldoq, zoq, kaptar bo`yin. krang, ko`ktemir, lilovi, limurang, makaylik miynovi, novvotrang, nilobi, nimtatir, nim pushti, norgul, olov rang, olma talqon, oq upa suvi, sabzi rang, saman, sariq kesak siyo(h), sir, sovot, surma rang, tilla rang, tupori turiq, to`tiyoyi, hamir rang, shaftoli guli, shingob, shinni, shol, qizi kemak qizg`aldoq, qovoq sariq, g`irko`k g`oliya, hal, hafrang, azraq, akxob, alas, asali, asfar, arg`avoniy, axzar, aqrobi, ahmar, bayzo, baxromi, birjina, vardi, gulfom, damoviy, yoqutiy, jigargun, jimriy, zaytiy, zulmoni, kabidiy, kofir gul, kuxliy, la`lfom, lola gul, maxsar, miyno, muzaffarj mushkin, nabotiy, naftiy, nilgun, niliy, noranti, obgun, obrang, ob`yoz, obsun, oyna gul, osmoni, rayhoni, rind, rummoni, sabza gul, savod, savsan, samoviy, sandaliy, sandarus, safro, saxar gul, siymagun, silqiy mmnagun, tamriy, tibniy, tovusiy, tutagiy, usfuriv, utrujiy, urjvoniy, ttilloliy, xuniy, tabgun, shamgun, shafaqgun, shaqoqiy, shingirf, shirfom, ijiyirgLin, holiqiy, azraqvali, asfarvash, axzarvash, ahmarvash, safsarvish, iiNl\ir, qizg`aldoq, sarg`ilt, qizg`ilt, ko`kimtir, oqimtir, qoramtir, sarg`imtir, lut`kish, oqish, sarg`ish qizg`ish, rangpar, nilfom, norfom, ko`kcha, ijoracha, oqchil, nomgil, damaviy, gulgun, lolagun, asali, jimriy, zatiy, yoqutiy, nafarmon, baxramoni va boshqalar.

Sharq san`atida rang har doim nihoyatda katta rol o`ynagan. Har bir rang o`ziga xos ramziylikka, falsafiy ma`noga egabo`lgan. Bundan tashqari, tnnglar orqali insonlarni davolaganlar.

Ota-bobolarimiz ranglarning hamma xususiyatlarini yaxshi bilganlar. atrofimizni o`rab turgan tabiat ranglariga shaydo bo`lganlari uchun zniigori, lojuvard va yashil ranglarni ayniqsa, ko`p ishlatganlar. Binolarning knshin va parchin sirlarini oftob nurida tovlanishini hamda atrofdagi ranglar liiliin bog`lanishini hisobga olib, munosib bo`yoqlar tanlaganlar. Parchin va kosllinlarda asosan, lojuvard, zangori, yashil, sariq va oq ranglar ishlatilgan. Osmon, yer, terilgan pishiq g`isht rangi bilan juda yaxshi bog`langan.

Har bir rangning o`z mazmuni va asoslangan manbayi bo`ladi. Ko` m -ko`k, ya`ni havorang - ota bo`yoq koinotni eslatadi. Yashil rang - i ma bo`yoq yer yuzidagi yam-yashil tabiat ramzidir. Ular aralashmasida bo`lgan ranglardan xuddi onalik va otalik mehri kelib turgandek luyuladi.

**Rang nomlari va ularning kelib chiqishi**

Rangtasvirning ilmiy negizini rangshunoslik fani tashkil qiladi. Rangshunoslik bo`lg`usi rassomlarga ranglarning tabiatda hosil bo`lishi va tarqalishi masalalarini, ularningatrof-muhit ta`siridao`zgarib ko`rinishini, bo`yoqlarni tayyorlash va ulardan foydalanish yo`llarini o`rgatadi.

Markaziy Osiyoda ranglar haqidagi ta`limot qadimdan kitob miniaturasi, naqqoshlik va devorlarga freska pannolar ishlash bilan bog`liq holda rivojlanib krlyan. Chunki, musavvirlikhunari rang tanlash va ularni tayyorlay bilishni talab ctgan. Shuning uchun har bir shogird, avvalo, rang tayyorlash sirlarini vii sliti ishga bog`liq kimyoviy jarayonlarni o`rgangan.

Ranglarning tabiatda qanday hosil bo`lish va tarqalish hodisalari ijmlimdan olimlar va rassomlarning diqqatini tortgan. Uyg`onish davri buyuk olimlari va nazariyachilari Leon Battista Alberti, Leonardo da Vinchi va boshqalar rangtasvir bo`yicha asarlarida ranglarning xususiyatlari haqi yozganlar.

Atoqli va mashhur olimlar Nyuton, Lomonosov, Gelmgoltsl ranglarning mohiyatini ilmiy asosda tekshirganlar.

Isaak Nyuton qator tajribalar o`tkazib, oq yorug`likning ko`p rangl ekanligini isbotlagan, ekranda spektr ranglami hosil qilgan. Buning uchur Nyuton quyoshning oq yorug`ligini derazadagi qora pardaning ingichki tirqishidan o`tkazgan va yo`liga uch qirrali prizma qo`ygan, natijada ekrandl bar xil ranglardan iborat keng yorug`lik dastasi ko`ringan. Ekranda ko`ringaij ranglar spektr ranglar bo`lib, ular quyidagicha joylashgan edi: qizil" zarg`aldoq, sariq, yashil, zangori, ko`k va binafsharang.

Maxsus asbob-spektroskop yordamida ko`plab aniq va ravshan spektrl; hosil qilish mumkin.

Oq yorug`lik aslida murakkab bo`lib, rangdorlik jihatidan shunchalik turli tuman-ki, bir rangdan ikkinchisiga o`tishda yana bir qator rang tuslari seziladi.

Spektr ranglarni yomg`ir yog`ib o`tgandan keyin osmonda paydr bo`ladigan kamalakda, favvoralardan otilayotgan suv zarralarida kuzatisl mumkin. Spektr ranglarni qayta bir joyga to`plansa, oq yorug`lik hosil bo`ladi.

Nyuton ranglarni fizika fani nuqtayi nazaridan o`rgangan bo`lsa, nemif sholri va san`atshunosi I.V.Gyoteni ko`proq ranglarning kishi organizmi" ko`rsatadigan ta`siri qiziqtirgan.

Gyote «Rang haqidagi ta`limot» nomli asarida ranglarni iliq va sovui tuslarga ajratib, iliq (sarg`ish-qizil) ranglar kishida kayfi chog`lik tuyg`usini sovuq (havorang-yashil) ranglar esa, ma`yuslik tuyg`usini uyg`otishi haqid; yozgan.

XIX asrda nemis tabiatshunos olimi G.L.Gelmgolts rangshunosli nazariyasida muhim yangilik yaratgan. Ko`p yillik tajribalari asosida xromati ranglarni uchta asosiy alomati - rang toni (nomi), rangning och-to`qligi v to`yinganligi asosida turkumlash kerakligini ko`rsatgan.

Rang muammolarini o`rganishga yapon olimlari hamisha jiddiy qarashgani Hozir ham dunyoda yagona bo`lgan Tokio rang institutida inson qalbiga ta`sir etadigan tabiat hodisasi - rang atroflicha o`rganiladi.

Ranglarning nomini ifodalovchi, ya`ni ularning birini qizil, ikkinchisini ko`k, uchinchisini binafsha va hokazo deb atalishiga asos bo`lgan belgisj rang toni deyiladi.

Biror xromatik rangga ozroq kulrang qo`shsak, uning sho`xchanlig pasayib, nursizlanadi. Bu hol rangning kam to`yinganligidan, ya`ni unin tarkibida sof bo`yoqning kamayganligidan darak beradi. Demak, rangnin to`yinganligi deganda, uning kulrangga nisbatan rangdorlik darajasini tozaligini tushunish kerak. Yuqorida aytilganlardan ma`lum bo`ldiki, xromatik ranglar bir-biridan uchta asosiy xossasi - rang toni (rangning o`zi), rangning och-to`qligi va to`yinganligi bilan farq qilar ekan. Spektrni sinchiklab kuzatsak, uning eng chekkasidagi qizil va binafsha ranglari orasida o`xshashlik alomatlarini sezamiz. Ikkala rang bir-biriga qo`shilsa, ularning oralig`ida qirmizi ranglar hosil bo`ladi. Bu hosil bo`lgan rangni qizil rang bilan binafsha rangning o`rtasidajoylashtirib, spektr tutashtirilsa, halqa kelib chiqadi. Buni rangshunoslikda ranglar doirasi deb yuritiladi.

Ranglar doirasida qizil, qizg`ish zarg`aldoq, sariq, sarg`ish yashil, yashiltab zangori, havorang, ko`kimtir havorang, ko`k ko`kimtir binafsha, qirmizi ranglarning har xil tuslari ko`rinadi.

Ranglar doirasida rang tuslari juda ko`p bo`lishi mumkin. Lekin, kn`zlarimiz ularning 150 taga yaqinini ajratishga qodir. Ranglarning doira ho`ylab joylanish tartibi muayyan saqlanadi.

Rang doirasi ikki teng bo`lakka bo`linsa, birinchi yarmida qizil, zarg`aldoq, Mirn`ish yashil (pistoli) ranglar, ikkinchi yarmida esa yashil havorang, feruza, zangori, ko`k binafsha ranglar joylashadi. Doiraning birinchi vai inidagilar iliq ranglar, ikkinchi yarmidagilar esa sovuq ranglardir. Bunday nninlanishga sabab - qizil, sariq ranglar olovni, qizigan temirni, cho`g`ni cslalsa, havorang, zangori, yashil ko`klar esa muzning, suvning rangini eslatadi. Bu farqlanish nisbiy bo`lib, har qanday iliq, ham o`ziga nisbatan iliq oq rang yonida sovuq bo`lib ko`rinishi va aksincha, sovuq rang o`zidan sOvuqroq rang yonida iliqroq tuyulishi mumkin.

**Ranglarning nomlanishi**

O`zbek tilida quyidagi rang nomlari keng ko`lamda ishlatiladi: alvon, arg`uvon, bargi karam, binafsha, bug`doyrang, bo`z gulgun, gunafsha, jigarrang, zangori, za`faron, zumrad, qaxrabo, kulrang, ko`k lojuvard, lola rang, malla, moviy, moshrang, nafarmon, ol, oq, pista magiz, pistoli, pushti, Niiriq, safsar,

somonrang, sur, feruza, uchoq kesak qizil, qirmizi, qora, ijora magiz, qoracha, qo`ng`ir, havorang.

Xalq tilida ishlatiladigan rang nomlariga e`tibor bering: anordona, aqiq, bayzogul, barg rang, baqa tuni, bika, burul, gulnor, guloba, danifa rang, jigari, jiyron, jusha, zaynovi, zar, zarcha, zarg`aldoq, zoq kaptarbo`yin, kmng, ko`k temir, lilovi, limurang, manaylikminovi, novvotrang, nilobi, nmitatir, nim pushti, norgul, olov rang, olma talqon, oq upa suvi, sabzi rang, saman, sariq kesak siyo(h), sir, savot, surma rang, tillarang, tupori, turiq, to`tiyoyi, xamir rang, shaftoli guli, shingob, shinni, shol, qi kesak qizg`aldoq, qovoq sariq, g`irko`k g`oliya, hal, haf rang.

Bundan tashqari, Markaziy Osiyolik mutafakkirlar ijodida quyidagi ra nomlarini tez-tez uchratamiz: azraq, aqxob, alas, asali, asfar, arg`avoi axzar, aqrobi, ahmar, bayzo, bahromi, birjina, vardi, gulfom, damavi yoqutiy, jigargun, jimriy, zaytiy, zulmoni, kabidiy, qofir gul, kuhli; la`lfom, lolagun, madsar, miyno, muzaffar, mushkin, nabotiy, naftij nilgun, niliy, noranji, obgun, obrang, ob`yod, obsun, oyna gul, osmom rayhoni, rind, rummoni sabzagun, safod, savsan, samoviy, sandali; sandarus, safro, saxar gul, siymagun, siljiy, surmagun, tamriy, tibnij tovusiy, tutagiy, usfuriy, utrujniy, urjvoniy, falfoliy, xuniy, shabgui| shamgun, shafaqgun, shaqoqiy, shingarf, shirfom, qiyirgun, xoliqiy. |

Ranglarni xarakterlashda, odatda, asosiy rang nomi, oldidan quyidagi so`zlarning ishlatilishi kuzatiladi: dag`al, juda, zulmoniy, iliq, issiq, kam suv, kir munavvar, musaffo nafis, nim, odmi, ochiq, ravshan, rangpar; sal, sersuv, sovuq, suniq, tin, tiniq, toza, to`q, xira charog`on, shab rang, shaffof, eng yaltiroq, o`nggan, uchiq va hokazolar.

O`zbekcha rang nomlarini ifodalashda yo`1-yo`l, kataqola, ola-bo`la, ko`la, ola-chipor, pesa, taram-taram, targ`il, chipor, hol-hol, qashqa

yiri so`zlar o`ziga xos rol o`ynaydi.

Ranglarga nom berishning ana shunga o`xshash xususiyatlari Sharqda (Hilini zamonlardan beri hukm surib, rivojlanib kelmoqda.

Jumladan, Abu Rayhon Beruniy o`zining «Kitob al javohir fi ma`rifat il javohir» («Mineralogiya») asarida turli minerallar va metallarning rangini, mohirona tasvirlagan. Uning leksikasida faqat rang nomlarining o`zi kelgan

Shuningdek, Alisher Navoiy va Zahiriddin Bobur rang nomlaridan mohirona foydalanganlarini ko`ramiz.

N.Nyurberg va R.Lyuterlarning kolorimetrik tizimni kamalakning yettita rangi tarkibida terib chiqilgan sektorlardan iborat doira tarzida tasavvur qilish mumkin. O`z navbatidabu sektorlar doira markazigayaqinlashgan sari oqarib, loini

markazidan uzoqlashgan sari qorayib boradi. Doira radiusining taxminan o`rlalaridan bir gardish o`tganki, undan eng to`yingan kamalak ranglari olgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1.Q.Qosimov. Naqqoshlik. -T.: «O`qituvchi», 1990. -160-b.

2.E.G`oziev. Psixologiya. -T.: «O`qituvchi», 1994. 39. R.Hasanov. Boshlang`ich sinflarda naqsh chizish metodikasi. -T.! «O`qituvchi», 1972. 108-b. «

3.U.Nurtayev. Rangshunoslik asoslari. - T.: «Ilm ziyo», 2008.

4.N.Egamov. Rangtasvir. - T.: O`MKNTM, «Bilim», 2005.

5.R.Xudoyberdiyev. Rangshunoslik asoslari. - T.: G`.G`ulom nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2006.